

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ
САМАРКАНДСКОГО СОГДА 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрам о'g'li*
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ46-51
- Матажонов Раҳимжон Акрамович*
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF
UZBEKISTAN 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH
USULLARI VA AFZALLIKLARI 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TASHKILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	130-137

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI	214-219

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ	254-258

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI	272-277

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIJ TA'MINOTI	316-322

13.00.00- Педагогика фанлари

Niyozmatov Anvar Bahodirovich
Urganch davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi

XORAZM XALQ O'YINLARI

Annotatsiya. Bu maqolada Xorazm xalq o'yinlarining o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashdagi pedagogik-psixolog o'rni yoritilgan. Shu bilan birga, xalq o'yinlarining insonni dastlabki hayotga tayyorlash jarayonida tarbiyaning muhim omili ekanligi ko'rsatilgan. Xalq o'yinlari o'quvchilarning xalqimizning bir necha yillik madaniy boyliklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum darajada kengaytirib kelajak hayotda o'z o'rnini topishga yordam berishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq o'yini, milliy o'yin, bolalar o'yini, langi, oyoq uchi, urdi-girdi, biz, biz, biz edik, choqqa tutdi, ko'zboylagich, mushuk uyquda, xo'rozlar jangi, tosh qot, bektosh o'yini, cho'p duzdi.

Niyozmatov Anvar Bahodirovich
Urganch State Pedagogical Institute
senior teacher

KHOREZMIAN FOLK GAMES

Abstract. This article describes the pedagogical-psychological role of teaching children traditional games of the Khorezm people. Additionally, it highlights the important role of education in preparing individuals for life. Traditional games help to broaden children's understanding of our cultural heritage, which in turn, helps them find their place in the future.

Key words: traditional game, national game, children's game, langi, oyoq uchi, urdi-girdi, biz, biz, biz edik, choqqa tutdi, ko'zboylagich, mushuk uyquda, xo'rozlar jangi, tosh qot, bektosh o'yini, cho'p duzdi.

Ниёзматов Анвар Бахадирович
Ургенчский государственный
педагогический институт старший преподаватель.

ХОРЕЗМСКИЕ НАРОДНЫЕ ИГРЫ

Аннотация. В этой статье описывается педагогическо-психологическая роль обучения детей традиционным играм народа Хорезм. Кроме того, подчеркивается важная роль образования в подготовке людей к жизни. Традиционные игры помогают расширить понимание детей о нашем культурном наследии, что в свою очередь помогает им найти свое место в будущем.

Ключевые слова: традиционная игра, национальная игра, детская игра, ланги, ойққ учи, урди-гирди, биз, биз, биз эдик, чўққа тутди, кўзбойлагич, мушук уйқуда, хўрозлар жанги, тош қот, бектош о'йини, чўп дузди.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N43>

O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijod boyliklarini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashda ajdodlarimizning dono o'g'itlari bilan birga, ular tomonidan o'ylab topilgan milliy xalq o'yinlarining ham o'rni beqiyosdir.

Bunday o'yinlar ming yillar davomida ommalashib, xalqning ijtimoiy hayoti, maishiy turmush tarzi negizida taraqqiy etib, bizgacha etib kelgan. Ayniqsa, Navro'z, sumalak sayllarini xalq o'yinlarisiz tasavvur etish qiyin. Ularning esa sanab sanog'iga, aytib adog'iga yetib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyatini, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda 2018-yil 18-yanvar F-5181-son "Moddiy-madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyish asosida hamda Vazirlar Mahkamasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida xalqimizning boy tarixi va madaniy merosini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bolalar o'yinlarida shu bilan bir qatorda yengil hazil, musobaqa, jamoaviy birlikka yo'naltiruvchi sifatlar ko'proq ko'zga tashlanadi. O'zbek xalq o'yinlarini turlicha tasniflash mumkin. Masalan, o'yin ishtirokchilarning yoshiga nisbatan (bolalar, o'smirlar, kattalar), jinsga nisbatan (o'g'il va qiz bolalar yoki erkak va ayollar), mavsumga nisbatan (bahorgi, qishki, yozgi, kuzgi), o'ynaladigan joyga nisbatan (maydon, suv, xona), kasbga nisbatan (dehqon, hunarmand, chorvador va boshqa), hududga nisbatan (shimoliy, janubiy, sharqiy).

Xalq o'yinlari ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan ulkan tarixiy-madaniy boyligidir. Ular asrlar mobaynida avlod-ajdodlarimizga ma'naviy tetik ruh va jismoniy sog'liq ato etib kelgan. Ularni saqlash, asrash, oqilona foydalanish va jonlantirish milliy qiyofamizni saqlash demakdir.

Xalq o'yinlari o'zi-o'zidan shakllanmagan. Ular uzoq vaqt davomida xalq sinovidan o'tgan. Ayniqsa, bolalar o'yinlari o'ziga xos xususiyatga ega. Xalq o'yinlari bolalarni yoshligidan bir joyga uyushishga, o'zaro raqobatga, epchillik, chaqqonlik, harakatchanlik va topqirlikka o'rgatadi. Shuningdek, qizlarni oila hayotga tayyorlaydi.

XX asrning oxirlarida milliy o'yinlarning tiklanishiga juda katta e'tibor qaratildi. 1990-yillarda dastlab Jizzax viloyatida tashkil etilgan "xalq o'yinlari musobaqasi", 1994-yil birinchi "Xalq o'yinlari" Respublika olimpiadasiga aylandi. Unda qadimiy xalq o'yinlari "Bo'ron", "Chavandoz", "Olib qochar", "Chunka shuvoq", "Yelka kurash", "Qirq tosh", "Mindi", "Tortishmachoq" kabi turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, g'oliblar taqdirlangan. 1998-yilda Termizda "Alpomish" xalq o'yinlari Respublika olimpiadasi tashkil etilib, "Yoy otish", "Kamondan otish", "Nishonga urish", "Olishish", "Kurash" kabi xalq o'yinlari turlari musobaqasi o'tkazilgan. 2000 yilda esa bu musobaqa Farg'ona vodiysiga ko'chirildi. Ana shu yillardan boshlab o'zbek xalq o'yinlarining xalqaro nufuzi ham orta bordi. Bugungi kunda "Kurash" jahon

olimpiada o'yinlari safidan munosib o'rin egalladi. Xalq o'yinlaridan yana biri "Ko'pkari" (uloq)ning esa Markaziy Osiyo geomuhitidagi obro'yi oshib bormoqda.

Kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida bolalarga o'zlarining mavjudliklari uchun kurashib yashashga to'g'ri keldi. Bu kurash chaqaloqning go'dakka, go'dakning bolaga, bolaning o'spiringa va o'spirinning jamiyat yukini yelkaga olishiga qadar, asosan jismoniy va ma'naviy chiniqish yo'sinida kechadi.

Kurash ko'pincha bolalar hayotining ilk bosqichida o'yin xarakterida ko'rinadi. O'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchungina emas, balki aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga ega. Vohamizda bolalar tomonidan o'ynaladigan milliy harakatli o'yinlar juda ko'p.

Masalan, "urdi-qochdi", "kesak qo'ydi", "gashir qo'pard", "chullik (chillik)", "gavvosh", "bu nechta", "oq-terakmi-ko'k terak" va hk.

Bolalar o'z tengqurlari bilan, o'zidan kattalar va o'zidan kichiklar bilan o'ynaydilar. Shu sababli avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Bolalar o'yinlari faqatgina o'yin bo'la qolmasdan har bir o'yinni o'ziga xos ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati bor. Masalan, "Bu nechta" o'yinida bola sanashga o'rgansa, "Kesak qo'ydi" o'yinida bola topqirlik, sezgirlik va chaqqonlikka o'rganadi. Bu esa bolani kelajak hayotda yetuk inson bo'lib yetishishiga katta yordam beradi[1].

Albatta, yuqorida nomlari tilga olingan xalq o'yinlari katta o'yin bo'lib sport darajasiga yetgan. Ammo, xalq o'yinlari qadimgi davrlardan buyon bayramlar va to'y-tomoshalarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Masalan, "Xo'roz urishtirish", "Qo'chqorbozlik", "It urishtirish" kabi musobaqalar bayramlar va to'ylarning yanada qiziqarli o'tishini ta'minlagan. Shuningdek, "Dorboz o'yin" kabi maxsus o'yinlar ham xalq orasida mashhur bo'lgan. Yana aholi orasida shunday o'yinlar borki, ularni yoshligida o'ynamagan xorazmlik topilmasa kerak. Biz quyida Xorazm xalq o'yinlarining ba'zi turlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Langi – qo'rg'oshin va qo'y junidan iborat kichkina dumaloq koptokcha. Bu o'yinda kamida 2 ta kishi ishtirok etadi. Kim ko'p langini oyog'idan tushirmay tepib tursa o'sha ko'p ballga ega bo'lib o'yin g'olibi hisoblanadi. Hozirgi kunda langi o'yinida koptokdan ham foydalaniladi.

Oyoq uchi – o'yinda 7-8 ishtirokchi qatnashadi. Ishtirokchilar aylana shaklida turishadi va ulardan biri o'rtaga tosh tashlaydi. Tosh kimning oyog'iga tushsa, u ishtirokchilardan birining oyog'iga sakrashi kerak bo'ladi. Agar oyog'ini bosa olsa, bosgan ishtirokchi o'yinda qoladi. Oyog'i bosilgan ishtirokchi esa o'yindan chiqadi. O'yin shu tarzda davom etadi va oxirda qolgan ishtirokchi g'olib bo'ladi.

Urdu-girdi – ("Oyoqdan yopishdi", "O'rta yopar") unda kamida 3-5 ishtirokchidan qatnashadi. O'yinda ikki tomonda turgan 2 nafar ishtirokchi o'rtadagi ishtirokchilarga koptokni uloqtiradilar. Koptok tekkan ishtirokchi o'yinni tark etadi. O'rtada qolgan oxirgi ishtirokchiga 10 marta koptokni uloqtiradilar. Agar o'sha o'yinchiga koptok tegmasa, o'yinni tark etgan ishtirokchilar o'rtaga kiradilar, agar koptok tegsa, u bilan birga o'yinni tark etgan ishtirokchilar ikki tomonda turgan koptok uloqtiruvchilar bilan o'rin almashadilar. O'yin shu tariqa davom etadi[2].

Biz, biz, biz edik – bu qizlar o'yini bo'lib, unda bolalar doira shaklida turishadi va quyidagi qo'shiqni aytadilar:

"Biz biz, biz edik

O'ttiz beshta qiz edik.
Qop-qop og'zingni yop,
Yugurib borib joyingni top"

Qo'shiq tugagan zahotiy oq ishtirokchilarning hammasi joyida tosh qotishlari shart. Agar ulardan biri kulsa yoki qimirlasa, o'sha "bochka" bo'ladi. O'yin shu tariqa davom etadi va oxirida qolgan ishtirokchi g'olib bo'ladi[3].

Kraska-kraska – bu o'yinda bitta ishtirokchi "eshik " bo'ladi, yana bittasi esa "bo'ri" bo'ladi, qolgan 4-5 ishtirokchilar esa "kraska" bo'lishadi. "Eshik" "kraska" larga ranglardan nom beradi. Keyin "bo'ri" bir oyoqlab, qo'llarini tepaga ko'targan holatda kelib, "eshik"ni taqillatadi. "Eshik" undan nima kerakligini so'raydi. "Bo'ri" kraska kerakligini aytadi. Agar bo'ri kraska nomini to'g'ri topsa, uni o'zi bilan olib ketadi va unga quyidagi savollarni beradi:

- Qayerga bording?
- Xolamlarnikiga
- Nima yeding?
- Osh
- Menga qani?
- Qo'ygandim, mushuk yeb ketdi!
- Hozir men sening o'zingni yeyman deb bo'ri kraskani quvib ketadi. Agar "bo'ri",

"kraska"ni ushlasa, "bo'ri" "kraska" bo'ladi va kraska esa bo'ri bo'ladi. Agar "kraska", "eshik"ka yetib olsa, "kraska"ga boshqa nom beriladi va bo'ri o'z o'rnida qoladi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Chaqqa tutdi – o'yinning qoidasi yashirilgan danaklar sonini topishdan iborat. O'yinda 2-3 ishtirokchi qatnashadi va o'rik danaklaridan foydalaniladi. Bir ishtirokchi qo'llariga chaqqalarni (danaklar) yashiradi va boshqa ishtirokchilardan "Chaqqa- chaqqa! Nechta chaqqa?" deb so'raydi. Chaqqalar sonini to'g'ri topgan ishtirokchi o'sha chaqqalarga ega bo'ladi. Keyin esa boshqa ishtirokchi chaqqa tutadi. O'yin shu tariqa davom etadi [4].

Ko'zboylag'ich – o'yinning bu turida istagancha bola ishtirok etishi mumkin. Ishtirokchilardan bittasining ko'zi ro'mol bilan bog'lanadi. Ko'zlari bog'langan o'yinchi qolgan bolalarni tutishga harakat qiladi. Biror xavf tug'ilib qolganda, bolalar "alanga" deb ko'zi bog'langan bolani ogohlantirib qo'yishlari shart. Ko'zi bog'langan bola kimni ushlasa, o'sha ko'zboylag'ich bo'ladi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Ko'zi boyloq bola va shiqildoq – o'yinida bolalar doira bo'lib, qo'llarini ushlab turadilar. Doira markazida 2 nafar o'yinchi turadi. Bittasining ko'zi bog'langan bo'ladi(bu onaboshi bo'ladi), ikkinchisiga esa shiqildoq beriladi. O'yin boshlangach ikkinchi bola doira bo'ylab shiqildoqni shiqillatib yuguradi, ko'zboylag'ich esa uni quvlaydi va uni tutganidan keyin yangi onaboshi saylanadi. Agar onaboshi uzoq vaqtgacha shiqildoqli bolani ushlay olmasa, unda ikkala o'yinchi ham almashtiriladi.

Kim bir oyoqda tez yuguradi – Ushbu o'yinda bolalar 2 guruhga teng bo'linib, bir qatordan "start" chizig'i orqasida saf tortib turadilar. Har bir guruh qarshisiga 5-6 m masofada to'ldirma to'p qo'yiladi. O'yin boshlangach, guruhlarning birinchi turgan o'yinchilari bir oyoqda (o'ng yoki chap oyoqda) to'ldirma to'pgacha yugurib borib, uning o'ng tomonidan aylanib o'tadilar va orqaga qaytib kelib, ikkinchi o'yinchilarning qo'llariga qo'llarini tekkizib, qatorning oxiriga borib turadilar.

Berilgan vazifani birinchi bo'lib bajargan guruh g'olib hisoblanadi. O'yinning keyingi bosqichida boshqa oyoq bilan sakraydilar.

Arg'amchi ustidan sakrash – o'yinda yo'g'on arqon yoki arg'amchining ikki uchidan 2 bola ushlab, navbat kutib turgan bolalar tomoniga ohista, bir maromda aylantira boshlaydilar. Bolalar arqonchaga tegmasdan navbatma-navbat sakraydilar. Arqonchaga kim tegib ketsa, arqonchani aylantirayotganlardan biri bilan o'rin almashadi [5].

Mushuk uyquda – Bolalar doira ichida turgan bola va mushukning atrofida o'yinga tushib, quyidagi ashulani aytib yuradilar: “Mushuk uxlamogda, mushuk uxlamogda, mushuk uxlamogda o'zining inida” o'yin boshlandi, degan signaldan so'ng mushuk o'yinchilarni (sichqonlarni) ushlashga harakat qiladi. Sichqonlar har tomonga yugurib ketadilar. Mushuk kimga qo'lini tekkizsa, u mushuk bo'ladi va qolgan sichqonlarni tutishga yordam beradi. Sichqonlar doiradan chiqib ketganidan keyin, mushuklar orqaga o'z inlariga — doira markaziga qaytadilar. Mushuklar o'ynovchilarning hammasini yoki o'yinchilarning bir qismini tutguncha davom etadi.

Xo'rozlar jangi – Ikkitadan o'quvchi diametri 2 m bo'lgan doira ichiga kirib, bir oyoqda turib, ikkinchisini tizzadan bukkan holda ko'tarib turadilar. Qo'llari orqa tomonda yoki ko'krak oldida qovushtirilgan holatda bo'ladi. O'yinchilar bir-birlarini yelkalari bilan turtib, doira ichidan chiqarib yuborishga yoki raqiblarining ikkinchi oyoqlarini yerga qo'yishga majbur qiladilar. Buni bajara olgan o'yinchi g'olib chiqadi va o'z jamoasiga g'alaba keltiradi.

G'o'lachalarni urib tushirish – O'yinchilar ikki guruhga bo'linib, maydonchani chetida turadilar. Guruhlar o'rtasida yarim metr, narida balandligi 20-30 sm bo'lgan 6-10 ta g'o'lacha bo'ladi. Har bir guruh o'yinchilari bitta tosh yoki biror nima oladilar. Oldin birinchi guruh o'yinchilari g'o'lachani urib yiqitish uchun to'p otadilar, so'ng ikkinchi guruh o'yinchilari otadilar. Ko'proq g'o'lacha urib yiqitgan guruh g'olib bo'ladi.

Kimning qo'li kuchli – Bolalar stulda juft-juft bo'lib o'tiradilar. Bir-birlariga tegib turgan tirsaklarini stol ustiga qo'yib, bir-birlarining barmoqlarini ushlaydilar. Rahbar belgisidan so'ng ular bir-birlarining qo'lini egishga harakat qiladilar. Bunda kuchlilar yutadi[6].

Quvlashmachoq – Maydon chiziq bilan chegaralab chiqiladi. Bitta onaboshi – quvlovchi tayinlanadi. Boshqa o'yinchilar uning atrofida doira hosil qilib turishadi. Quvlovchi bir, ikki, uch deydi. Hamma bolalar har tomonga yugurib qochishadi, quvlovchi ularni quvlaydi va tutadi. Quvlovchi tutib olgan bola quvlovchi bo'ladi. O'yinni istalgan vaqtgacha o'ynash mumkin.

“Bahr-u bayt” o'yinida ishtirokchilar soni cheklanmagan. O'yin 2 guruh bo'lib o'ynaladi. Bu o'yin, “Bayt barak” deb ham nomlanadi. Nomidan ham ma'lumki, bu o'yinda guruhlar bir-birini she'r aytish orqali yengishga harakat qiladi. Qaysi guruh she'r aytishdan to'xtab qolsa, u mag'lub sanaladi. Yana bu o'yinni shahar, gullar, daraxtlar va ismlarni aytish orqali ham o'ynash mumkin. Birinchi ishtirokchi aytgan she'r qaysi harfda tugasa, raqib guruhi ishtirokchisi aynan o'sha harf bilan boshlanadigan so'zdan boshlashi shart[7].

Varrak uchirish – Bolalar varraklarni ko'pincha o'z qo'li bilan yasaydilar. Ba'zan tayyorini sotib olish mumkin. Varrak uchirish o'yinida musobaqalashmay, hatto alohida mashg'ul bo'lganda ham katta zavq bag'ishlaydi. Ushbu o'yin guruh yoki yakka tarzda ham o'tkaziladi. Kimning varragi balandga ko'tarilsa va uzoq uchsa o'sha g'olibdir [8].

Tosh qot – Bu o'yinni ko'proq qizlar o'ynashadi. Uni o'ynashda 5 tadan kam bo'lmagan ishtirokchi kerak bo'ladi. O'yinni boshlash uchun qur'a asosida o'yinboshi aniqlab olinadi. So'ng ishtirokchilar aylana hosil qilishadi, o'yinboshi esa ularni kuzatib turadi. Ishtirokchilar aylanib,

qo'l ushlashib qo'shiq aytishadi. O'yinboshi "Toshqot" deyishi bilan ishtirokchilar haykaldek qotishi lozim. O'yinboshi kimningdir harakatini sezib qolsa, o'sha ishtirokchi bilan o'rin almashadi. O'yinni istalgancha davom ettirish mumkin.

Oq terakmi, ko'k terak – O'yin uchun kamida 10 ta ishtirokchi kerak bo'ladi. O'yinchilar 2 guruhga bo'linib, bir-birlarining qo'llaridan ushlab turishadi va raqib guruhdan so'rashadi:

-Oq terakmi, ko'k terak? Bizdan sizga kim kerak?

Qarshi tomon o'zi istagan kishini chaqiradi:

-Oq terakmi, ko'k terak? Sizdan bizga Husnora kerak!

Chaqirilgan ishtirokchi ro'parada turgan guruh yugurib borib, raqiblarning ushlab turgan qo'llarini uzishi lozim. Agar uzib o'tsa o'zi bilan bitta o'yinchi olib ortiga qaytadi, o'tolmasa o'zi ham o'sha guruhda qoladi. Qaysi guruhda ishtirokchi qolmasa o'sha guruh mag'lub sanaladi [9].

Kimga solay – Bu o'yin qizlarga xos bo'lib, 3 va undan ortiq ishtirokchilar yordamida o'ynaladi. O'yin uchun kichkina munchoq (tosh, danak) kerak bo'ladi. O'yinni boshlab beruvchi qiz ikki kafti orasiga munchoq donasini yashiradi. Qolgan ishtirokchilar bir qatorga tizilib, kaftlarini tutashtirgan holda ochib o'tirishadi. Munchoq yashirgan qiz ishtirokchilarni tekshirib, quyidagi qo'shiqni aytadi:

Solay, solay, kimga solay? Sochi uzun qizga solay...

U ishtirokchilardan xohlaganining kaftiga munchoqni soladi. Uni olgan qiz ham buni sezdirmaydi va payt poylab o'rnidan turib qochadi. Qaysi qiz tutib undan munchoqni olsa, o'yinboshi bo'ladi va yuqoridagi qo'shiqni aytgan holda qizlar kaftiga munchoq soladi. Shu tarzda o'yin davom etadi [10].

Chullik – Bu o'yinda kamida 2 ta odam qatnashadi. Unda 2 ta tayoqdan foydalaniladi. Ulardan biri uzunligi yarim metr, ikkinchi tayoq uzunligi esa 25-30 sm bo'ladi. Bunda 2 ta g'isht yon tomoni bilan yerga qo'yiladi va ustiga 25-30 sm bo'lgan tayoq qo'yiladi. Birinchi ishtirokchi uzunligi yarim metr bo'lgan tayoq bilan uni uloqtiradi. Uloqtirilgan tayoqni ikkinchi ishtirokchi ushlasa, unga ball beriladi, agar ushlolmasa birinchi ishtirokchi o'sha tayoq tushgan joygacha yarim metrlik tayog'i bilan sanab boradi va qancha sanagan bo'lsa, u shuncha ballga ega bo'ladi[11].

Bektosh o'yini – Bu o'yin ham milliy o'yinlaridan biri bo'lib, bunda kamida 2 kishi qatnashadi. Bu o'yinni asosan qizlar o'ynashadi. O'yinning quroli 5 ta toshdan iborat bo'lib, bitta tosh "bektosh" deb ataladi va u tosh portlovchi tosh hisoblanib, boshqa toshlar unga tegsa o'yin to'xtatilib boshidan boshlanadi. Bektosh o'yini 5 ta bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda toshlar 2 ta barmoq, 2-bosqichda 3 ta, 3-bosqichda 4 ta va 4-bosqichda 5 ta baroq orasidan o'tishi kerak. So'ngra hamma tosh yuqoriga otilib o'ng qo'l kaftining orqa tomoniga to'kilmasdan tushirilishi kerak, shundagina ball to'planadi[12].

Eshak mindi – Bu o'yinda har jamoada 5 tadan ishtirokchi bo'ladi. Birinchi guruh ishtirokchilari bir-birini belidan ushlab engashib turishadi. Ikkinchi guruh ishtirokchilari esa ularni ustiga minib o'tirishadi. Agar chavandozlardan biri yiqilsa, unda ikkinchi guruh eshak bo'lib, birinchi guruh esa chavandoz bo'ladi.

Xola-xola – Qizlarning eng sevimli o'yini hisoblanadi. Qizlar bu o'yinni voyaga yetkunga qadar o'ynashadi. Uning hech qanday tartib qoidasi, ishtirokchilar soni va o'ynaladigan vaqtda chegara yo'q. Bu o'yinda qizlarimiz mehmon kutadilar, mehmonga boradilar, qo'g'irchoqlarni

belanchakka belashadi. Uy supirib, ovqat tayorlaydilar. Xullas, bir gap bilan aytganda, bu o'yin qizlarni real hayotga tayyorlaydi [13].

Cho'p duzdi – Bu o'yinda 2 kishi ishtirok etadi. Yerga kvadrat shakl chiziladi va uning qarama – qarshi burchaklarini birlashtiruvchi va tomonlariga parallel chiziqlar o'tkaziladi. Keyin esa cho'plar kvadrat bo'ylab burchak yasagan chiziqlarning ustiga qo'yiladi. Har bir ishtirokchida 3 tadan cho'p bo'lishi kerak. "Cho'p duzdi" o'yinida cho'plar bitta chiziqda tuzilishi kerak. Kim birinchi bo'lib tuzsa, o'sha g'olib bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan bolalar o'yinlari bolalarning aqliy rivojlanishida, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, Xorazm viloyatida bolalar sichqon-mushuk, bir oyoqlab sakrash, tayoqdan sakrash, gizlanmajak, kimkimdan o'zar, skakalkada sakrash, qaychi-qaychi, qurbaqa o'yini, shatak o'yini, o'rtadan qopchishdi, o'mbaloq oshmoq, ilon izi bo'lib yurish kabi qadimiy o'yinlarni ham o'ynaydilar.

Bugungi kunda bolalar o'yinlarida ham transformatsiya jarayoni kuchli seziladi. Hatto, ko'cha changitib o'ynayotgan bolalarni kamdan-kam ko'ramiz. Bugungi kun bolalari kompyuter o'yinlari, internet, telefon, sportning ommaviy turlari yoki bilim olishning turli yo'llari bilan banddirlar.

O'tgan asrning 80-yillariga qadar Xorazmda to'y marosimlari xalq o'yinlarisiz o'tkazilmagan. Ammo 80-yillardan boshlab to'ylarda xalq o'yinlarining o'rni deyarli qolmadi. Ammo, bayramlar va sayllarda **"qo'chqorbozlik"**, **"xo'rozbozlik"**, **"it urishtirish"**, **"arqon tortish"**, **"polvonlar kurashi"** o'tkazilib turadi. Keyingi paytlarda Xorazmda **"dorboz o'yini"** ham yo'qolib bormoqda. Ammo, **"kurash"** rivojlanib, sportning mukammal turi darajasiga yetmoqda.

Xalqimizning ming yillar davomida yaratgan og'zaki ijod boyliklarini to'plash, o'rganish, bu xazinadan yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismonan barkamol qilib tarbiyalash ishidan samarali foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xalq milliy harakatli o'yinlari, raqslari va sport turlari singari o'zining bitmas — tuganmas bilim va tajriba sarchashmasiga ega. Shu boisdan milliy harakatli o'yinlarni o'rganish, keng jamoatchilik asosida tadqiq qilish, ularni o'quvchilarning jismoniy madaniyati jarayoniga tadqiq etish, ayni muddaodir. Milliy harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishning o'ziga xos tomonlari mavjud. Shuning uchun ham, o'yinning nozik tomonlarini bilishning ahamiyati kattadir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ў.Одамова. Хоразмда болалар ўйинлари ва уларнинг болаларда ҳаётий кўникмаларни шаклланишидаги роли // Изланишлар, тадқиқотлар, кашфиётлар. Урганч. 1993.54-бет.
2. Dala yozuvlari. Bog'ot tumani, Nurafshon shaharchasi, 2013-yil
3. Dala yozuvlari. Xonqa tumani, Qirqyoq qishlog'i, 2013-yil.
4. Dala yozuvlari. Bog'ot tumani, Qorayontoq qishlog'i, 2014-yil
5. Dala yozuvlari. Bog'ot tumani, Qorayontoq qishlog'i, 2014-yil
6. Dala yozuvlari. Qo'shko'pir tumani, Xayrobod qishlog'i, 2014-yil
7. Dala yozuvlari. Urganch shahri, Asalarichi mahallasi, 2014-yil

8. Dala yozuvlari. Bog'ot tumani, Qorayontoq qishlog'i, 2014-yil
9. Dala yozuvlari. Qo'shko'pir tumani, Obod qishlog'i, 2013-yil
10. Dala yozuvlari. Xonqa tumani, Olaja qishlog'i, 2013-yil
11. Dala yozuvlari. Xiva tumani, Chanashiq qishlog'i, 2014
12. Dala yozuvlari. Qo'shko'pir tumani, Qatag'on qishlog'i, 2012-yil
13. Dala yozuvlari. Xonqa tumani, Tomo-Durvadik qishlog'i, 2013.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).